

# IV SHO‘BA. KADRLAR SIFATINI OSHIRISH VA XORIJIY TIL O‘QITUVCHILARINING MALAKASINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI

## INGLIZ TILIDA QURILISH SOHASIDAGI TERMINLARNI O‘QITISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

**Bunyod Bazarov To‘lqinjonovich**

Jizzax politexnika instituti, p.f.f.d. (PhD), dotsent.,

**Mamadaliyev Muhammad Baxtiyor o‘g‘li**

Arxitektura va qurilish fakulteti talabasi

Tel: +998945748200,

E-mail: [beknurbek2010@mail.ru](mailto:beknurbek2010@mail.ru)

O‘zbekiston, Jizzax viloyati, Jizzax shahar

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada OTMlarda terminologik lug‘atni o‘qitish metodologiyasi va tamoyillari tahlil qilinadi. Ta’kidlanishicha, optimal rejalashtirish va boshqarish usullarini joriy etish so‘nggi o‘n yilliklarda innovatsion pedagogik, muhandislik-texnik kadrlar, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy sohalar uchun kadrlar tayyorlashning ahamiyati keskin oshgani bilan bog‘liq.

**Kalit so‘zlar:** kasbiy muammolar, nofilolog mutaxassis, statistik usul, interaktiv lingvotexnologiya, til kompetensiyasi.

**Abstract:** This article analyzes the methodology and principles of terminological vocabulary teaching in HEIs. It is noted that the introduction of optimal planning and management methods is associated with the sharp increase in the importance of training innovative pedagogical, engineering and technical personnel, as well as personnel

**Keywords:** professional problems, non-philological expert, statistical method, interactive language technology, language competence.

**Аннотация:** В статье анализируются методика и принципы преподавания терминологической лексики в вузах. Отмечается, что внедрение оптимальных методов планирования и управления связано с резким увеличением значимости подготовки инновационных педагогических, инженерно-технических кадров, а также кадров.

**Ключевые слова:** профессиональные проблемы, эксперт-нефилолог, статистический метод, интерактивная языковая технология, языковая компетенция.

Tilda jamiyatning obyektiv ehtiyojlari tegishli ijtimoiy tartibda ifodalanadi. Chet tillarni o‘rganish zarurati nafaqat mamlakatimizda, balki butun dunyoda sodir

bo'layotgan globalashuv va integratsiya jarayonlari bilan bog'liq bo'ladi. Kasbiy muammolarni hal qilish uchun madaniyatlararo muloqotni amalga oshirishga qodir bo'lgan malakali mutaxassislar tayyorlash ta'limning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Oliy ta'limning Davlat ta'lim standarti zamonaviy talablariga muvofiq, bo'lajak nofilolog mutaxassis chet tildan zarur bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi kerak. Dunyo miqyosida kasbga yo'naltirilgan ingliz tilini o'rgatish (ESP) doirasidagi qator fundamental va amaliy loyihalar berilgan ma'lumotlarni tez o'qib tushunish malakalarini rivojlantirishga yo'naltirmoqda. CEFR – chet tillarni egallash Umumevropa kompetensiyalari: o'rganish, o'qitish va baholash xalqaro me'yorlari (CEFR – Common European Framework of Reference: learning, teaching, assessment)ga muvofiq, oliy ta'lim muassasalarining ixtisosligi xorijiy til bo'lmagan fakultetlarni bitiruvchilarining to'rt yillik tahsillari nihoyasida o'rgangan chet til bo'yicha B2 darajani egallashlari zarurligi ko'rsatilgan. Ana shu jihatdan nutq faoliyatining asosiy turlari gapirish, tinglab tushunish, o'qish va yozuv malakalarini rivojlantirishning muhim omili bo'lgan leksikani o'rgatish borasida ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va xalqaro baholash tadqiqotlari bilan yaqindan hamkorlik qilish va o'qitishning interaktiv lingvotexnologiyalarini mamlakatimiz ta'lim sharoitiga adaptivlashtirish ushbu tadqiqotning dolzarbligi va zaruratini belgilaydi.

Maqolada OTMlarda terminologik lug'atni o'qitish metodologiyasi va tamoyillari tahlil qilinadi. Ta'kidlanishicha, optimal rejalashtirish va boshqarish usullarini joriy etish so'nggi o'n yilliklarda innovatsion pedagogik, muhandislik-texnik kadrlar, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy sohalar uchun kadrlar tayyorlashning ahamiyati keskin oshgani bilan bog'liq. Ilmiy va texnik nutqni to'g'ri tushunish uchun atamalarni bilish muhim rol o'ynaydi, chunki ularda ma'lum bir soha uchun eng muhim tushunchalar, xabarlarining maqsadi va tarkibi, ularning ma'nosini o'z ichiga olgan ma'lumotlarning asosiy ulushi mavjud xabarlar ifodalanadi. Shu sababli, universitetlarda yuqori bosqichda chet tilni o'rgatishda eng muhim o'rinlardan biri terminologik lug'atni oqilona tanlash muammosi va xususan, kiritilgan materialning umumiy hajmida atamalarining optimal vaznini tanlash vazifasidir. O'quv jarayonida tanlov hajmini baholash mezonini amaliyot nuqtai nazaridan eng muhim, maqsadga muvofiq va maqbul taqsimlash. Statistika usul, eng aniq usul sifatida, ta'lim maqsadlarida atamalarni tanlash uchun obyektiv asos bo'lgan chastotali terminologik lug'atni olish imkonini beradi. Terminologik lug'atni tanlash mezonlarini aniqlash, ular asosida terminologik lug'atni o'zlashtirish jarayonini optimallashtirish bo'yicha mashqlar, amaliy vazifalar tizimini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

OTMlarning nofilologik yo'nalishlarida xorijiy til asosiy fan sifatida o'qitila boshlandi va istalgan ixtisoslik bo'yicha tahsil olayotgan talabalarning kasbiy tayyorgarligining ajralmas qismiga aylandi. Qurilish yo'nalishi bo'yicha ishlab chiqilgan dasturlarning bir qismi hisoblangan xorijiy til talabalarning kasbiy

muloqotga kirishishi jarayonida to'laqonli ishtirok etishlari uchun ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga egadir. Mamlakatimizdagi arxitektura-qurilish sohasiga oid oliy ta'lim muassasalarida kasbiy ta'lim jarayonida chet tillarni o'qitish va talabalarni til mutaxassisligi bo'yicha tayyorlash o'rtasidagi farqlardan biri shundaki, chet tillarni o'qitishdan maqsad ularning ingliz tilini maxsus maqsadlarda o'rgatish (ESP) va kasbiy muloqot ko'nikmalarini yanada rivojlantirishdan iborat.

So'nggi yillarda O'zbekistonda kechayotgan o'zgarishlar hamda muloqot vositalarining jadal sur'atlarda rivojlanib borishi oliy ta'lim muassasalarida xorijiy tillardagi matnlarni o'qitish va ularni tarjima qildirish kabi eski an'anaviy usullardan kechgan holda talabalarga ilmiy va terminologik leksikadan foydalanib, og'zaki nuqtani rivojlantirishga yo'naltirish kunning dolzarb mavzusiga aylandi. Xorijiy tillarni o'qitish uchun ajratilgan akademik soatlar sonini cheklanganligi xorijiy tillarni yaxshi biladigan mutaxassis-o'qituvchilarga bo'lgan talabning oshib borishi talabalarga chet tildagi sohaga oid so'z va iboralarni o'qitish usulini yanada takomillashtirishni dolzarb mavzuga aylantirdi. Chet tillarni o'zlashtirish talabalarni hozirgi kunda barkamol shaxs qilib tarbiyalashdagi eng muhim ishlardan biri hisoblanadi, chunki, har bir talabaning chet tilni o'rganish, bilim egallash va aqliy qobiliyatni faollashtirish deganidir. Kasbiy mahoratning ajralmas qismi bo'lgan chet tillarni egallash orqali esa ushbu egallangan bilim va ko'nikmalar talabalarning kelgusidagi ilmiy-pedagogik va kasbiy faoliyatlarini yanada samarali amalga oshirish imkoniyatini yaratadi.

Ta'lim sohasini modernizatsiya qilish, sohada samarali tizimlarni tatbiq etilishi hamda iqtisodiy, siyosiy, ilmiy va madaniy sohalarda xalqaro aloqalarni yanada rivojlantirish kelgusi mutaxassis-kadrlarga xorijiy tillarni o'qitishda yangidan-yangi maqsad va vazifalarni qo'yimoqda. Talabalarning kasbga yo'naltirilgan leksik kompetensiyalarini shakllantirib, rivojlantirilmaguncha zamonaviy kasbiy ta'limni yo'lga qo'yib bo'lmaydi. Ma'lumki, keng ko'lamdagi ilmiy ma'lumotlar asosan ingliz tilida yaratilgan bo'lib, mazmunan boy va turli konferentsiyalar, simpoziumlar va ilmiy mavzudagi seminarlar ham ingliz tilida olib borilishi sir emas. Odatiy o'rta umumta'lim maktabini hisobga olmaganda, talabalarning kasbiy muloqotga kirishishlari uchun ingliz tilini o'rta darajada bilish, hatto ingliz tilida so'zlashiladigan mamlakatda yashash natijasida olingan malakaga ega bo'lish ham yetarli emas. Hatto ingliz tilida yaxshi gaplasha oladigan talabalar ham ilmiy hamda kasbiy mavzularda suhbat qilganda qator qiyinchiliklarga duch keladi.

Kasbiy sohada arxitektor-quruvchilar chet ellik mijozlar bilan o'zaro aloqada bo'lishadi va shuning uchun chet tilni o'zlashtirishning haqiqiy ehtiyoji kasbiy muammolarni hal qilish uchun zarur va muvaffaqiyatli vositadir. Ulardan biri, xususan, arxitektorning texnik faoliyati dizaynini taqdim etishdir. Arxitektor va quruvchilar chet tilda yetarlicha bilimga ega bo'lmasligi natijasida xorijiy

manbalardagi yangiliklardan, ya'ni ushbu yo'nalishdagi o'zgarishlardan bexabar qolishi natijasida, yetarlicha texnik malakaga erisha olishmaydilar. Bu mutaxassislarning terminologik tayyorgarligi sifatini pasaytiradi va kasbiy vaziyatlarga salbiy ta'sir qiladi. Oliy ta'lim muassasalari talabalarning til kompetensiyasi yetarli darajada rivojlanmagan va texnika, arxitektura, konstruktiv terminologiyasining chet tildan kompetensiyasini shakllantirish zarurati dolzarb sanaladi.

Maqolaimizda quyidagi bo'lajak me'morlar, quruvchilarning kasbiy tayyorgarligiga qo'yiladigan talablarni oshirish, ularning kasbiy faoliyatining axborot maydonini kengaytirish, ularning muloqotida til ko'nikmalariga tegishli muammolarni hal qilishni o'z ichiga oladi. Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, arxitektura-qurilish yo'nalishi talabalari an'anaviy ravishda chet tilni bilish darajasining pastligi bir nechta sabablarga ko'ra kuzatilgan:

- chet tilga majburiy fan emas balki tanlov fan sifatidagi munosabat;
- sohadagi xorijiy til o'qituvchilari bilim darajasining ma'lum darajada yetarli emasligi;

- sohaga oid o'quv adabiyotlarining talabalarning soniga nisbatan yetarlicha emasligi;

- talabalarning madaniyatlararo kasbiy ehtiyojlarini hisobga olishning yetarli emasligi. Arxitektura va qurilish mutaxassisliklari, xususan, loyihani chet tilda taqdim etish va himoya qilish ko'nikmalarini shakllantirish bilan bog'liq bo'lib, bu bizning fikrimizcha, ushbu kasb mutaxassislarining kasbiy kompetensiyasining asosiy elementlaridan biridir. Arxitektor-quruvchining nutqi va fikrlash faoliyatining eng muhim holatlaridan biri o'quv jarayonida va xalqaro ko'rgazmalarda chet tilda arxitektura loyihalarini taqdim etish, muhokama qilish yoki himoya qilishdir. Arxitektura loyihasining taqdimoti - bu obyektни qurish yoki rekonstruksiya qilish to'g'risida tomoshabinlarni xabardor qilish, loyihani ishlab chiqish va amalga oshirishda manfaatdor tomonlarni izlash sanaladi. Xorijiy arxitektura-qurilish loyihasining xorijdagi taqdimoti talabalarga xorijiy hamkasblar bilan maxsus ma'lumot almashish, xalqaro qurilish bozorini faol rivojlantirish, joylarda mahalliy loyihalarni ilgari surish va raqobatbardosh bo'lish imkonini beradigan xorijiy tillarni loyihalash va texnik kompetensiyani tashkil etuvchi tegishli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishini anglatadi.

### **FOYDALINILGAN ADABIYOTLAR**

1. Council of Europe (2020), Common European Framework of Reference for Languages: Learning, teaching, assessment – Companion volume, Council of Europe Publishing, Strasbourg, available at [www.coe.int/lang-cefr](http://www.coe.int/lang-cefr). – 278 p.

2. Антимирова В.В. Лексико-семантические и деривационные характеристики русской лингвистической терминологии: Дисс. ... канд. филол. наук – Краснодар, 2018. –198 с.
3. Cabre M.T. Terminology: Theory, Methods and Applications / Ed. Juan C. Sager / - Amsterdam: Benjamins, 1998.

## **TOPONIMLARNI QIYOSIY-FUNKSIONAL TADQIQ ETISHDA FOYDALANILGAN LINGVISTIK METODLAR**

**R.Asadov** SamDCHTI dotsent.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada toponimlarning ingliz va o‘zbek tillari matnidagi sintaktik o‘rni, komponentlar orasidagi sintaktik munosabatlarga asoslangan differensial sintaktik va differensial sintaktik-semantik xususiyatlar qiyosiy va tipologik jihatdan o‘rganiladi. Matndagi sintaktik birliklarni sintaksislarga bo‘lish yo‘li bilan tahlil qilishda, eng avvalo, kategorial differensial sintaktik-semantik xususiyatlar aniqlanadi va ular asosida bu birliklarning gapdagi o‘rniga nisbatan nokategorik belgilari aniqlanadi.

**Tayanch so‘zlar:** matn, toponimlar, sintaktik, tarkibiy qismlar, differensial, semantik xususiyatlar, qiyosiy tipologik, kategorik, funksional.

**Аннотация:** В данной статье сравнительно и типологически исследуются синтаксическое место топонимов в тексте английского и узбекского языков, дифференциальные синтаксические и дифференциальные синтаксико-семантические признаки, основанные на синтаксических отношениях между компонентами. При анализе синтаксических единиц в тексте путем деления их на синтаксисы в первую очередь определяются категориальные дифференциальные синтаксико-семантические признаки, а на их основе выявляются некатегориальные признаки этих единиц по отношению к их месту в предложении.

**Ключевые слова:** текст, топонимы, синтаксические, межкомпонентные, дифференциальные, семантические признаки, сравнительно-типологические, категориальные, функциональные.

**Annotation:** In this article, the syntactic place of toponyms in the text of the English and Uzbek languages, differential syntactic and differential syntactic-semantic features based on syntactic relations between components are studied comparatively and typologically. When analyzing syntactic units in a text by dividing them into syntaxes, first of all, categorical differential syntactic-semantic features are determined, and on their basis non-categorical features of these units are identified in relation to their place in the sentence. In addition to the analyzed sentence, when